MENING UYIM

Po‘latova Kamola
Tursunova Farida

Sinf: 5-b sinf (kasbiy ta`lim texnologiya)

Mashg`ulot turi: amaliy ochiq dars

Vaqt: 45 daqiqa

1. Mashg`ulotning maqsadi:

• Ta`limiy: O‘quvchilarga geometrik shakllar(kvadrat,uchburchak, to‘rtburchak)yordamida uy tasvirini (applikatsiya)yig`ish va yopishtirishni o‘rganish.

• Tarbiyaviy: O‘quvchilarda o‘z uyiga, oilasiga bo‘lgan mehr- muhabbatni shakllantirish, mehnatsevarlik va tartiblilikni tarbiyalash.

• Korreksion- rivojlantiruvchi: bolalarning mayda motorikasini (qo‘l mushaklari), rang va shakl ajratish qobiliyatini, diqqat va fazoviy tasavvurini rivojlantirish.

2. Kerakli jixozlar va ko‘rgazmalar:

• O‘qituvchi uchun: Tayyor uy applikkatsiyasi namunasi, geometrik shakllar aks etgan plakat, rag`batlantirish kartochkalari

• O‘quvchilar uchun:

(- Oldindan qirqib tayyorlangan rangli qog`oz bo‘laklari;
- Lego uyinchoqlari;
- Sanoq cho‘plar;
- listga tasvirlangan turli uychalar va ularning soyalari;
- rangli qog`ozdan tayyorlangan turli shakllar;
- mosh,yelim,list;)

MASHG`ULOTNING BORISHI

I. Tashkiliy qism: (3-5 daqiqa)

1. Salomlashish va kayfiyatni aniqlash:

O‘quvchilar bilan salomlashish. “Hozir kayfiyatimiz qanday?quyoshlimi yoki bulutli?(bolalar tabassum kulgichlarini ko‘rsatishadi)”.

2. O‘yin: O‘quvchilarga xar hil harakatda turgan odamchalarning rasmi ko‘rsatiladi bolalar esa o‘sha harakatni bajarishlari lozim.

Tarbiyachi: bolalar kayfiyatimiz a`lomi, tana a`zolarimizni qizdirib oldikmi? (bolalar ha dep javob berishadi)

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash va kirish(5- 7 daqiqa)

1. Suhbat: Bolalar, biz qayerda yashaymiz ? Bizni sovuqdan, yomg`irdan nima himoya qiladi? (Javob; uy)

2. Shakllarni eslash (o‘yin shaklida):

O‘qituvchi qo‘lida geometrik shakllarni ko`rsatadi:

- Bolalarga qaysi geometrik shakl ko‘rsatilgan bo`lsa o‘sha shakl ustiga ketma –ketlida sakrash lozim.

- Shu tariqa barcha o‘quvchilar novbat bilan o‘yin shartlarini bajarishlari lozim.

III. Yangi mavzu bayoni va namoyish (10 daqiqa)

1. Namuna ko`rsatish: O‘qituvchi doskaga namunalarni ilib quyadi.

2. Bosqichlarni tushuntirish:

- Har bir ko‘rgazmalarni birin ketin tushuntiriladi;

- Har bir partaga list, yasash uchun kerakli jixozlar beriladi;

- Bolalar doskadagi namunaga qarab, oldilariga berilgan jihozlardan har xil uychalar yasaydilar.

3. Xavsizlik qoidalari: yelimdan to‘g`ri foydalanish, jihozlarni ko‘zga yoki og`izga olib bormaslikni eslatib o‘tiladi.

IV. Jismoniy daqiqa(dars o‘rtasida charchoqni yozish 2-daqiqa)

Gup –gup uramiz
(mushtlarimizni bir biriga uramiz)
Bizlar bolg`a uramiz.
Yana bir uy quramiz
(Qo‘llardan tom yasash)
Unda baxtli yashaymiz!
(Qo‘llarni yozib tabassum qilish)

V. Mustaxkamlash: O‘quvchilar oldindan pastga tayyor qilib yopishtirib qo`yilgan uycha oldiga kelishadi, va ushbu uychani birgalikda yasashadi(rangli skoch ustiga legolarni hamkorlikda ishlab, qo‘yib chiqishlari kerak;)

Baholash: Hamma bolalar bajargan mehnatlari uchun maqtaniladilar. Ularga “Barakalla”, “Siz ajoyib quruvchisiz” degan so‘zlar bilan yorqin stikerlar (yulduzcha yoki quyoshcha) tarqatiladi.

Global Science Publication